



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot,
2024-yil yanvar-noyabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



2024-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **11 720** ta bo'lib, shundan, yirik korxonalar soni **39** ta, kichik korxona va mikrofirmalar **11 681** tani tashkil etmoqda.

Shuningdek, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **29 890,8** mlrd so'mni, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,5** % ni tashkil etdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **3 851,5** mlrd so'mni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **26 039,3** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **116,9** %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **2 609,8** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **106,4** %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	29 890,8	107,5
Samarqand sh.	9 604,5	104,7
Kattaqo'rg'on sh.	1 105,9	108,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	672,1	107,3
Bulung'ur	2 115,8	109,4
Jomboy	1 062,3	109,2
Ishtixon	1 123,3	109,3
Kattaqo'rg'on	1 125,2	107,1
Qo'shrabot	590,8	108,8
Narpay	1 475,7	110,8
Payariq	915,3	111,7
Pastdarg'om	978,1	107,2
Paxtachi	546,3	110,4
Samarqand	3 253,8	107,4
Nurobod	436,4	109,1
Urgut	2 889,0	110,7
Toyloq	849,3	105,9


2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan Payariq (**111,7** %), Narpay (**110,8** %), Urgut (**110,7** %), Paxtachi (**110,4** %), Bulung'ur (**109,4** %), Ishtixon (**109,3** %), Jomboy (**109,2** %), Nurobod (**109,1** %), hamda Qo'shrabot (**108,8** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati dynamikasi (yanvar-noyabr)




So'nggi 5 yillikda (2020-2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **111,4** % ni tashkil qildi.

2023-2024-yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida o'sish sur'ati **107,5** % ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulush **Samarqand shahrida 33,4 %** bilan **9 604,5** mlrd so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, **Nurobod tumani 1,5 %** bilan **436,4** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd so'm

Samarqand sh.	9 604,5
Samarqand	3 253,8
Urgut	2 889,0
Bulung'ur	2 115,8
Narpay	1 475,7
Kattaqo'rg'on	1 125,2
Ishtixon	1 123,3
Kattaqo'rg'on sh.	1 105,9
Jomboy	1 062,3
Pastdarg'om	978,1
Payariq	915,3
Toyloq	849,3
Oqdaryo	672,1
Qo'shrabot	590,8
Paxtachi	546,3
Nurobod	436,4

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda) (2024-yil yanvar-noyabr)



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **26 039,3** mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **16,9** % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **87,1** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi **3 851,5** mlrd so'mni 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **69,7** % ni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **12,9** % ulushiga to'g'ri keldi.



110,4

Urgut t.

110,8

Paxtachi t.

110,8

Narpay t.

111,7

Payariq t.

124,9

Jomboy t.

134,9

Samarqand sh.

Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

114,1

Kattaqo'rg'on t.

114,6

Payariq t.

116,4

Toyloq t.

117,8

Bulung'ur t.


118,1

Ishtixon t.

130,1


Urgut t.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda),
(2024-yil yanvar-noyabr)**




Tahliliyl natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (99,9 %), Narpay (99,5 %), Ishtixon (99,3 %), Jomboy (99,3 %), Oqdaryo (99,1 %) va Payariq (99,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 12,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (20,3 %) va Samarqand (30,5 %), Bulung'ur (16,9 %), Kattaqo'rg'on (5,6 %), Pastdarg'om (4,4 %) tumanlarida kuzatildi.

12,9 %



87,1 %


 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiyl tadbirkorlik


Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda (2024-yil yanvar-noyabr)

Samarqand viloyati **7 046,6**

Samarqand sh. **16 298,1**

Kattaqo'rg'on sh. **11 604,5**

Oqdaryo **3 847,2**

Bulung'ur **10 381,7**

Jomboy **5 556,1**

Ishtixon **4 036,3**

Kattaqo'rg'on **3 801,6**

Qo'shrabot **4 137,4**

Narpay **6 444,0**

Payariq **3 318,7**

Pastdarg'om **2 530,8**

Paxtachi **3 565,9**

Samarqand **11 831,9**


Nurobod **2 664,0**

Urgut **5 120,5**

Toyloq **3 808,4**

2024-yilning yanvar-noyabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **7 046,6** ming so'mni (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **105,3** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatgichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**16 298,1** ming so'm), Samarqand tumani (**11 831,9** ming so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**11 604,5** ming so'm) va Bulung'ur (**10 381,7** ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunda dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-noyabr), foizda




Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalaridan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	2 609,8	106,4	1 021,8	101,5	1 588,0	109,7
Samarqand sh.	216,7	122,6	176,5	104,5	40,2	2,1 m.
Kattaqo'rg'on sh.	261,7	94,5	101,9	87,0	159,8	100,1
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	148,4	104,7	9,6	74,7	138,8	107,7
Bulung'ur	234,9	113,7	84,4	156,5	150,4	98,6
Jomboy	191,9	103,7	99,4	64,4	92,5	2,6 m.
Ishtixon	212,1	105,6	120,6	123,6	91,5	88,5
Kattaqo'rg'on	195,3	109,4	99,4	188,9	95,9	76,2
Qo'shrabot	111,1	102,1	15,3	60,7	95,9	114,6
Narpay	106,8	115,6	55,6	2,1 m.	51,2	77,6
Payariq	203,5	103,5	56,8	74,6	146,7	121,7
Pastdarg'om	78,9	97,6	7,2	87,0	71,7	98,8
Paxtachi	125,6	107,1	45,6	116,4	80,1	102,4
Samarqand	109,9	119,3	13,7	177,8	96,2	114,0
Nurobod	118,5	119,9	16,4	55,4	102,1	147,6
Urgut	152,1	106,1	77,5	87,9	74,5	135,4
Toyloq	142,4	90,7	41,9	85,9	100,5	92,9


– xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm (2024-yil yanvar-noyabr)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi **2 609,8** mlrd so'mni, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,4** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **1 021,8** mlrd so'mni (**101,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **1 588,0** mlrd so'mni (**109,7** %) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 021,8** mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**409,9** mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi
(2024-yil yanvar-noyabr)

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 409,9 mlrd so'm  40,1 %	Non va non mahsulotlari 81,3 mlrd so'm  7,9 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 129,9 mlrd so'm  12,7 %
Tovuq go'shti 75,7 mlrd so'm  7,4 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar) 116,8 mlrd so'm  11,4 %	Tuxum 45,6 mlrd so'm  4,5 %
Ziravorlar 46,7 mlrd so'm  4,6 %	Sut va sut mahsulotlari 37,7 mlrd so'm  3,7 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 26,4 mlrd so'm  2,6 %
Tuzlamalar 34,7 mlrd so'm  3,4 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 17,1 mlrd so'm  1,7 %	

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **1 588,0** mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **1 271,4** mlrd so'm, qo'y va echkilar **239,2** mlrd so'mni, otlar **68,3** mlrd so'mni, parrandalar **9,1** mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 707,9 mlrd so'm  44,6 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 362,1 mlrd so'm  22,8 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 201,4 mlrd so'm  12,7 %
Qo'ylar 187,5 mlrd so'm  11,8 %	Otlar 68,3 mlrd so'm  4,3 %	Echkilar 51,7 mlrd so'm  3,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 3,2 mlrd so'm  0,2 %	Tovuqlar 5,7 mlrd so'm  0,4 %	Quyionlar 0,1 mlrd so'm  0,006 %
Qushlar 0,1 mlrd so'm  0,006 %		

2024-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **3 058** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **9** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **3 049** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	17 017,4	113,7
Samarqand sh.	920,0	108,5
Kattaqo'rg'on sh.	28,5	117,1
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	8,7	120,1
Bulung'ur	30,2	116,4
Jomboy	29,3	115,9
Ishtixon	8,4	118,1
Kattaqo'rg'on	15,7	116,9
Qo'shrabot	14,0	120,6
Narpay	15,7	117,0
Payariq	11,9	116,5
Pastdarg'om	88,6	115,3
Paxtachi	14,1	118,5
Samarqand	55,7	119,3
Nurobod	14,4	118,1
Urgut	28,1	118,0
Toyloq	36,1	116,6

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **17 017,4** mlrd so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan **13,7 %** ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining **79,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot
(2024-yil yanvar-noyabr)

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Samarqand viloyati	4 170,4	100,0
Samarqand sh.	3 308,7	79,3
Kattaqo'rg'on sh.	32,6	0,8
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	35,5	0,8
Bulung'ur	10,7	0,3
Jomboy	39,1	0,9
Ishtixon	17,6	0,4
Kattaqo'rg'on	15,6	0,4
Qo'shrabot	4,5	0,1
Narpay	15,3	0,4
Payariq	23,5	0,6
Pastdarg'om	10,7	0,3
Paxtachi	9,9	0,2
Samarqand	360,1	8,6
Nurobod	2,0	0,05
Urgut	6,4	0,2
Toyloq	278,2	6,7


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**3 308,7** mlrd so'm), Samarqand (**360,1** mlrd so'm) va Toyloq (**278,2** mlrd so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi, (mlrd so'm) (2024-yil yanvar-noyabr)




2024-yilning yanvar-noyabr oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) **4 170,4** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **52,8** % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **846,5** mlrd so'm (o'sish sur'ati **2,1 m.**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **3 323,9** mlrd so'mni (o'sish sur'ati **143,2** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'mda (2024-yil yanvar-noyabr)




Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **22 348,4** mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **18,3** % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **12 806,5** mlrd so'mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **103,2** % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **57,3** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK HAMDA KICHIK BIZNES KORXONALARINING SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (2024-yil yanvar-noyabr)

2024-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 212** tani tashkil etib, shundan, yirik korxonalar soni **32** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **3 180** tani tashkil qildi. Ulgurji savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahrida (**124,2 %**) va Bulung'ur (**130,4 %**), Pstdarg'om (**116,9 %**), Samarqand (**113,5 %**), Nurobod (**110,9 %**) hududlarida kuzatildi.

	Jami mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd so'm	2023-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd so'm	2023-yil yanvar – noyabr oylariga nisbatan, foizda
Samarqand viloyati	22 348,4	118,3	9 541,9	147,1	12 806,5	103,2
Samarqand sh.	13 722,7	124,2	7 004,0	152,8	6 718,7	103,9
Kattaqo'rg'on sh.	386,8	110,4	0,4	28,3	386,4	110,8
<i>tumanlar:</i>						
Oqdaryo	532,2	105,9	0,0	-	532,2	105,9
Bulung'ur	643,6	130,4	562,7	134,9	80,9	106,0
Jomboy	319,6	103,7	28,6	74,4	291,0	107,9
Ishtixon	151,4	110,7	0,0	-	151,4	110,7
Kattaqo'rg'on	424,5	108,8	0,0	-	424,5	108,8
Qo'shrabot	45,7	111,2	0,05	27,7	45,7	111,6
Narpay	176,6	109,1	0,3	63,5	176,3	109,3
Payariq	127,2	109,3	0,0	-	127,2	109,3
Pstdarg'om	821,6	116,9	258,1	158,7	563,5	104,3
Paxtachi	19,5	109,9	0,05	18,6	19,4	111,4
Samarqand	1 838,5	113,5	591,1	162,1	1 247,4	99,3
Nurobod	90,7	110,9	23,8	126,2 m.	66,9	82,0
Urgut	673,1	106,0	0,0	-	673,1	106,0
Toyloq	825,4	92,3	411,3	93,5	414,1	91,1